


2022- yil yanvar-oktabr oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida Toshkent shahrida jami **25 598,2** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2021-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **104,0 %** ni tashkil etdi.




2022- yil yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʼlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2022- yil yanvar-oktabr oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi



- Bino va inshootlar qurilishi
- Fuqarolik obyektlarini qurilishi
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

mlrd. so'm

Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2022- yil 1-noyabr holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxona va tashkilotlar soni 9,8 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 9,5 mingtani tashkil etib, o'tgan 2021- yilning mos davriga nisbatan 488 taga ko'paygan.

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan bino va inshootlar qurilishi ishlari hajmi 108,1 % ni tashkil qilib (jami qurilishdagi ulushi 63,0 %) ni tashkil qildi, fuqarolik obyektlarini qurish 85,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 19,8 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringin 115,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 17,2 %) Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Bino va inshootlar qurilishi bo'yicha qurilish ishlaringin eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 103,1 % ni tashkil etdi.




Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.11.2021- yil	01.11.2022- yil	
Toshkent shahar	9 013	9 501	488
tumanlar:			
Bektemir	190	223	33
Mirzo Ulug'bek	1149	1208	59
Mirobod	822	834	12
Olmazor	757	778	21
Sirg'ali	481	518	37
Uchtepa	660	676	16
Chilonzor	1145	1214	69
Shayxontoxur	721	747	26
Yunusobod	1155	1163	8
Yakkasaroy	923	962	39
Yangi xayot	200	257	57
Yashnobod	810	921	111



Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.11.2022- yil holatiga




Ma'lumot uchun: Toshkent shahrida qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Chilonzor (12,8 %), Mirzo Ulugbek (12,7 %) va Yunusobod (12,2 %) tumanlaridir.

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 9 062,0mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 102,8 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 35,4 % ni tashkil qildi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da




2021- yil
yanvar- oktabr

2022- yil
yanvar- oktabr

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Yunusobod tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **53,1 %**), Uchtepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **49,2 %**), Shayxontohur tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **45,2 %**), Bektemir tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **41,3 %**) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar
■ 2022- yil yanvar-oktabr oylari
■ 2021- yil yanvar-oktabr oylari


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022-yil yanvar-oktabrda 2021-yilning yanvar-oktabrga nisbatan ko'payish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **57,1 %**i bajarilib, 2021-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **2,8 %** punktga ko'paygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,1 %** ni tashkil etgan holda **14 612,9 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **7,5 %** ni tashkil etib, **1 923,3 mlrd. so'm** miqdorida qayd etilib, 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **80,7 %** ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **594,5** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʼsish surʼati 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **70,6 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **2,3 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **25 003,7** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati **106,1 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **97,7 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

2022- yil yanvar-oktabr

63,0 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **63,0 %** yoki **16 129,7 mlrd. so'mni** tashkil etgan.

35,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **9 062,0 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi jami qurilish ishlaridagi ulushi **35,4 %** ni tashkil etdi.

57,1 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **14 612,9 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **57,1 %** ni tashkil etdi.

7,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **1 923,3 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **7,5 %** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2022- yil yanvar-oktabr oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur’ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m)
Toshkent shahar	25 598,2	104,0	15 180,7
tumanlar:			
Uchtepa	1 673,7	71,5	835,9
Bektemir	807,3	120,0	494,8
Yunusobod	4 301,8	106,5	2 888,0
Mirzo Ulug’bek	2 660,6	87,8	1 513,7
Mirobod	3 137,8	119,6	1 717,6
Shayxontoxur	1 841,4	109,5	1 274,0
Olmazor	1 694,3	94,3	947,4
Sergeli	1 163,9	101,5	602,2
Yakkasaroy	2 244,0	109,1	1 197,6
Yashnabod	2 488,0	132,7	1 307,3
Yangihayot	983,8	114,8	652,0
Chilonzor	2 601,5	104,5	1 750,2

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo’shgan holda



Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari,%da

2021- yil yanvar-oktabr

15,5




Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

24,0



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

60,5



Bino va inshootlarni
qurilishi

2022- yil yanvar-oktabr

17,2



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

19,8



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

63,0



Bino va inshootlarni
qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **33,1 %** ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **123,3 %** ni tashkil etdi. Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan 2021- yilning yanvar-oktabr oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **109,1 %** ni tashkil qildi, ulushi esa **55,0 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021-yilning yanvar-oktabr oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **78,0 %**ni tashkil qildi, ulushi esa **11,9 %**ni tashkil etdi.



■ 2021- yil yanvar-oktabr

■ 2022- yil yanvar-oktabr




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **44,6 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **66,9 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **55,4 %** ni va 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **109,1 %** ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-
oktabr oylarida


Toshkent shahrida qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **33,4 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **131,3 %** ni tashkil etdi. **66,6 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **109,1 %** ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-
oktabr oylarida

Toshkent shahrida qurilish ishlari



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-oktabr

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Yunusobod t.
4 301,8

1


2

Mirobod t.
3 137,8

Mirzo ulug'bek t.

2 660,6

3



Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

Bektemir t.
807,3



1

2

Yangihayot t.
983,8

Sergeli
1 163,9

3



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



**Toshkent shahar
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (71) 203-88-18(19)

**2022- yil yanvar-
oktabr oylarida**

Toshkent shahrida qurilish ishlari